

O'SPIRINLARDA KOGNITIV TIZIMNI RIVOJLANTIRISHDAGI INNOVATION YONDASHUVLAR

N. N. Ashrapov

O'qituvchisi, Buxoro davlat universiteti
psixologiya kafedrası

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'spirinlarning kognitiv rivojlanishiga qaratilgan zamonaviy va innovatsion yondashuvlar o'rganilgan. Bundan tashqari, maqolada ijodiy fikrlashni rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni ta'limda ishlatish, o'spirinlarning kognitiv rivojlanishini rag'batlantirish kabi jihatlar ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. O'spirin, kognitiv rivojlanish, intellekt, diqqat, ijodiy fikrlash, texnologiya, ko'nikma.

ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ ПОЗНАВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация

В этой статье рассматриваются современные и инновационные подходы к когнитивному развитию подростков. Кроме того, в статье был проведен научный анализ таких аспектов, как развитие творческого мышления, использование цифровых технологий в образовании, стимулирование когнитивного развития подростков.

Ключевые слова. Подросток, когнитивное развитие, интеллект, внимание, творческое мышление, технологии, навыки.

INNOVATIVE APPROACHES TO THE DEVELOPMENT OF THE COGNITIVE SYSTEM IN ADOLESCENTS

Annotation

This article explores modern and innovative approaches aimed at the cognitive development of adolescents. In addition, the article provides a scientific analysis of such aspects as the development of creative thinking, the use of digital



technologies in education, the stimulation of the cognitive development of adolescents.

Keywords. Adolescent, cognitive development, intellect, attention, creative thinking, technology, skills.

Kirish

O'spirinlik davri – bu shaxsning kognitiv rivojlanishi uchun juda muhim va dinamik davr. Bu davrda miya tez rivojlanadi, yangi bilim va ko'nikmalar o'zlashtiriladi, mulohaza yuritish va qaror qabul qilish qobiliyatlari shakllanadi. Shu bilan birga, bugungi kunning tezkor rivojlanayotgan dunyosi o'spirinlarga yangi turdagi talablar qo'ymoqda. Ular murakkab ma'lumotlarni tahlil qilish, muammolarni samarali hal qilish, ijodiy fikrlash, hamkorlik qilish va texnologiyalarni samarali ishlatish qobiliyatlarini rivojlantirishlari kerak.

An'anaviy ta'lim tizimlari bu talablarga to'liq javob bera olmayotganligi, o'spirinlarning kognitiv qobiliyatlarini to'liq rivojlantirishda muammolar yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, o'spirinlarda kognitiv tizimni rivojlantirish uchun innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj sezilyapti.

Ushbu maqolada o'spirinlarda kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy va innovatsion yondashuvlarni ko'rib chiqish mumkin. Maqolada neyro-ta'lim, o'yinli o'rganish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish usullari, shuningdek, raqamli texnologiyalarni ta'limda samarali ishlatish va o'spirinlarga individual yondashuv kabi muhim va bugungi kunda juda dolzarb mavzularda to'xtalib o'tamiz.

Ushbu maqolaning maqsadi o'spirinlarning kognitiv rivojlanishiga hissa qo'shadigan zamonaviy ta'lim tizimini shakllantirishga yordam berishdir.

Adabiyotlar tahlili

O'spirinlarda kognitiv tizimni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar bo'yicha tadqiqotlarni olib borgan ko'plab olimlar bor. Ularning tadqiqotlari neyro-ta'lim, o'yinli o'rganish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish, texnologiyalarni ta'limda ishlatish va individual yondashuv kabi sohalarida muhim hissa qo'shgan. Quyida ba'zi muhim olimlar va ularning hissalar haqida qisqacha ma'lumotlarni ko'rib o'tish mumkin:

1. John Medina - Neyro-ta'lim rivojlanishining yuksak namoyondalaridan biri bo'lib, " Miya qoidalari " kitobi muallifidir. U miya faoliyati va ta'limning o'zaro



bog'liqligini o'rganadi. J.Medina o'spirinlarning e'tiborini jalb qilish, xotirani mustahkamlash va o'rganish samaradorligini oshirish uchun mo'ljallangan o'quv usullarini ishlab chiqdi.

2. Jeyms Pol Gi - O'yinli o'rganishning afzallik va samaradorligini ko'rsatib o'tgan psixolingvistik olim hisoblanadi. Jeyms Pol Gi " O'rganish va savodxonlik haqida bizga qanday Video o'yinlar o'rgatishi kerak " kitobi bilan mashhurdir. U video o'yinlarning o'spirinlarning motivatsiyasi va o'rganish qobiliyatlariga ta'sirini o'rganadi. J.Pol Gi o'yinli o'rganishning o'spirinlarni qiziqtirish va ularning muammolarni hal qilish qobiliyatini oshirishga yordam berishini ta'kidlaydi.

3. Edvard de Bono - Ijodiy fikrlashning yaxshi rivojlanganligi o'spirinlarda yangiliklarni o'ylab topish xususiyatini paydo qilishiga ishonadi. De Bono ijodiy fikrlash usullarini o'rganadi va o'spirinlarda ijodiy potentsialni rivojlantirishga qaratilgan texnikalarni ishlab chiqadi. Uning tadqiqotlari o'spirinlarga yangi g'oyalarni yaratish, muammolarni nostandart usullar bilan hal qilishga yordam beradi.

4. Hovard Gardner - Ko'p qirrali intellekt nazariyasi asoschisi hisoblanadi. Gardner intellektning ko'p qirrali ekanligini ta'kidlaydi va o'spirinlarning har xil intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim tizimini taklif qiladi. Uning nazariyasi o'spirinlarning shaxsiy qiziqishlari va kuchli tomonlarini hisobga olib, ularga moslashtirilgan ta'limni tashkil qilishga yordam beradi.

5. Syuzan Blekmor - o'rganish va madaniy o'zgarishlarning tarqalishini o'rganadi. Uning tadqiqotlari o'spirinlarning yangi g'oyalarni o'zlashtirish, axborotni tahlil qilish va muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. S.Blekmor-Muloqot qilish orqali o'spirinlar ko'plab qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishlarini ta'kidlagan.

Ushbu olimlar va boshqa ko'plab tadqiqotchilarning hissalar o'spirinlarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan yangi ta'lim strategiyalarini shakllantirishga yordam berdi. Ularning tadqiqotlari o'spirinlarga 21-asr talablariga javob beradigan bilim va ko'nikmalarni egallashini ta'minlashga qaratilgan.

Muhokama

O'spirinlarning kognitiv rivojlanishiga qaratilgan zamonaviy va innovatsion yondashuvlar yurli xil ekanligi bilan farqlanadi. Ushbu mavzuni turli yo'nalishlar bo'yicha muhokama qilish mumkin bo'lib, ular quyidagilar:



1.Neyro-ta'lim: Miyaning qanday ishlashi haqidagi so'nggi tadqiqotlarga asoslangan ta'lim usullarini tahlil qilinishi neyro-ta'limning asosini belgilab beradi. Neyro-ta'limning o'spirinlarda e'tiborni jamlash, xotirani yaxshilash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishdagi ahamiyati juda yuqori hisoblanadi. Bu o'rinda neyro-ta'limning o'spirinlarda kognitiv rivojlanishning ajobiy ta'sir qilishi ham uning muhim jihat ekanligini ko'rsatib beradi.

2.O'yinli o'rganish: O'spirinlarning motivatsiyasini oshirish va kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirish uchun o'yinlarni ta'limga integratsiya qilish usullari eng samarali hisoblanadi. O'spirinlarda asosan turli xil o'yinli o'rganish usullarining tadbiq qilinishi - ularning kognitiv rivojlanishi, ta'lim olish samaradorligini yanada oshiradi.

3.Ijodiy fikrlashni rivojlantirish: O'spirinlarda ijodiy fikrlashni rag'batlantirish uchun mo'ljallangan usullarning mavjudligi ularning yangi bilimlarni egallashga bo'lgan intilishini yanada oshiradi. Miya hujumi, rol o'ynash, tasavvur qilish va boshqa ijodiy usullarni qo'llash orqali o'spirinlarning ijodiy potentsialini ochishga qaratilgan amaliy maslahatlarning taqdim etilishi ular uchun yangicha fikrlashni kelib chiqishiga xizmat qiladi.

4.Raqamli texnologiyalarni ta'limda ishlatish: Zamonaviy texnologiyalarni o'spirinlarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri shundan iboratki, o'spirinlar zamonaviy texnologiyalar orqali zamon bilan hamnafas bo'lib borishadi. Ulardan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqish juda muhim hisoblanadi. Bunda raqamli o'quv materiallari, o'yinlar, simulyatsiyalar va onlayn o'rganish platformalarini ta'limga integratsiya qilinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

5.O'spirinlarga individual yondashuv: Har bir o'spirinning individual xususiyatlarini hisobga olib, ta'lim jarayonini moslashtirish hozirgi zamon ilm-fanda muhim jihat bo'lib qolmoqda. O'spirinlarning qiziqishlari, qobiliyatlari va o'rganish uslublarini hisobga olib, ularga moslashtirilgan ta'limni tashkil qilishga erishish juda katta yutuq hisoblanadi.

Innovatsion yondashuvlar o'spirinlarning kognitiv rivojlanishini rag'batlantirish va ularning 21-asr talablariga javob beradigan bilim va ko'nikmalarni egallashini ta'minlashga qaratilgan turli dasturlar va qo'llanmalarning yaratilishi hozirgi zamon miqyosida juda ahamiyatga ega.



Xulosa

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy dunyo o'spirinlardan murakkab muammolarni hal qilish, ijodiy fikrlash va texnologiyalarni samarali ishlatish qobiliyatlarini talab qilmoqda. An'anaviy ta'lim tizimlari bu talablarga to'liq javob bera olmayotgani uchun o'spirinlarda kognitiv tizimni rivojlantirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlarga ehtiyoj sezilyapti. Bu o'rinda bugungi zamon bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bir qator yo'nilishlarni ko'rib o'tish mumkin.

Hozirgi kunda miyaning qanday ishlashi haqidagi so'nggi tadqiqotlarga asoslangan o'quv usullari o'spirinlarda e'tiborni jamlash, xotirani yaxshilash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

O'yinlar o'spirinlarni qiziqtirish va ularning motivatsiyasini oshirish orqali o'rganish jarayonini yanada samaraliroq qiladi. O'yinli o'rganish muammolarni hal qilish, strategik fikrlash va hamkorlik qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

O'spirinlarda ijodiy fikrlash usullarini qo'llash ulargalarga yangi g'oyalarni yaratish, muammolarni nostandart usullar bilan hal qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga imkon beradi.

Raqamli o'quv materiallari, o'yinlar, simulyatsiyalar va onlayn o'rganish platformalari o'spirinlarga bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi va o'rganish jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi.

Har bir o'spirinning individual xususiyatlarini hisobga olib, ta'limni moslashtirish ularning qiziqishlarini rivojlantirishga, kuchli tomonlarini aniqlashga va o'rganish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Ushbu innovatsion yondashuvlar o'spirinlarning kognitiv rivojlanishini rag'batlantirish va ularning kelajakdagi muvaffaqiyatiga yo'l ochishga qaratilgan. Zamonaviy ta'lim tizimi ushbu yondashuvlarni o'z ichiga olib, o'spirinlarning potentsialini to'liq ro'yobga chiqarishga yordam berishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. James Gee. What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy. 2003.
2. James Gee . "Videogames in Education: What Video Games Have to Teach Us About Learning and Literacy". 2015
3. .F.I.Xaydarov N.I.Xalilova "Umumiy psixologiya" darslik Toshkent 2009.



4. Gardner, Howard (2011). Truth, beauty, and goodness reframed: Educating for the virtues in the 21st century. New York: Basic Books.
5. Medina, John. "Brain Rules for Baby: How to Raise a Smart and Happy Child from Zero to Five". Pear Press (October 12, 2010)
6. Medina, John Attack of the Teenage Brain! Understanding and Supporting the Weird and Wonderful Adolescent Learner. Seattle. March 12, 2018.

